



PEDIATRIYA YO'NALISHIDA BOLALARDA AUTIZM BELGILARI VA TASNIFI

Yuldasheva Nasiba Xudaynazarovna

Qarshi Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi

Pediatrica õqituvchisi

Annotatsiya: Maqola autizm spektridagi bolalar va ularning turli tasniflariga bag'ishlangan. Autizm sindromi qanday kasallik ekanligi, uning necha yoshdan ma'lum bo'lishi, bunday bolalar bilan qanday munosabatda bo'lish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: autizm sindromi, tashqi nutq, monologik nutq, stereotipik harakatlar, ijtimoiy ta'sirlar, autizm bola, autizm bola hayoti, o'z olami.

Mavzuning dolzarbligi: "Autizm" tashxisi bugungi kunda juda ko'p uchrayotgan kasallik bo'lib qoldi. Ammo bu atamani hamma ham tushunib yetavermaydi va autistik tashxisli boladan nima kutishni tushunib yetavermaydilar. Autizm spektrining buzilishi ijtimoiy o'zaro ta'sirning yetishmasligi, boshqa odamlar bilan aloqa qilishdagi qiyinchiliklar, muloqot paytidagi noadekvat reaksiyalar, cheklangan qiziqish va stereotiplarga (takroriy harakatlar) moyillik bilan tavsiflanadi.[1]

Hozirda dunyoda 6,5 milliondan ortiq autizmga chalingan shaxslar bor. So'nggi paytlarda autizm bilan chalinganlar soni ortib bormoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining 2019-yildagi ma'lumotiga ko'ra, 150 boladan 1 tasida autizm holati qayd etilgan. Autizm 21-asr kasalligidir.

Ilk bor "autizm" atamasi psixiatr E. Bleuler tomonidan kiritilgan bo'lib, u bu konsepsiyani haqiqiy munosabatlarga e'tibor bermasdan, assotsiatsiyalarni eksperimental haqiqatdan ajratish qobiliyati deb hisoblagan. Dastlab, E. Bleuler autizm bilan shizofreniya bilan og'rikan bemorlarning fikrlash o'ziga xosligini tushungan, uning asosiy xususiyati o'zidan va haqiqatdan chekinish edi. [1]



Bu kasallik sindromi o'g'il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko'p uchraydi. Simptomlarning har xilligi va kasallik o'zgaruvchanligi ushbu kasallikning murakkabligidan dalolat beradi: sezilarsiz autistik xususiyatlardan to doimiy parvarish talab etilishigacha.

Autizm haqiqatdan ham tashqi ogohlantirishlarga reaksiyaning yo'qligi, o'ziga chekinish, atrof muhit bilan aloqada juda passivlik va juda zaiflik deb hisoblanadi.

Autizmning asosiy belgilari qarashlari, yuz ifodasi va imo-ishoralari yordamida boshqalar bilan aloqa o'rnatishning tug'ma qobiliyatsizligida namoyon bo'ladi. Autizmli bolalar turli noqulay vaziyatlarga va taassurotlarning bezovta qiluvchi ta'siriga o'ziga xos tarzda munosabatda bo'lishadi. Bunday bolalarda nutq rivojlanishining kechikishi kuzatiladi. Autizm eng aniq 3-5 yoshda kuzatiladi va qo'rquv, tajovuzkorlik, negativizm bilan kechadi. Keyinchalik intellektual va shaxsiy rivojlanishdagi buzilishlar kuzatiladi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Olimlarning fikricha, autizm kasalligining kelib chiqish sabablaridan biri bu – homilaning ona qornidalik davrida ma'lum bir turdagi oqsillarning yetishmovchiligi. Ikkinchi sababi organizmda ikki xil og'ir metalning, qo'rg'oshin va simobning ko'payib ketishi. Uchinchi sabab atrof muhitning ekologik buzilishi va homiladorlik paytida kuchli stress holatlarini kechirish. Anemiya hamda qon bosimining oshishi, buyrakda bosim oshishi – bularning hammasi autizmning kelib chiqish sabablari hisoblanadi. Bundan tashqari, autizm kasalligi belgilarining kengayishini, ya'ni rivojlanishdan ortda qolish belgilarini Retta sindromi, Asperger sindromi va autizmning klassik simptom komplekslarining ko'p uchrashi ham sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, kasallik haqida ma'lumot ko'paymoqda. Ilgari tortinchoq, uyatchan, introvert va shizofreniyaga moyil bolalarni «g'ayritabiiy bolalar» deyishgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib bunday bolalarni autistik bolalar (autizm) deyishmoqda.

TAHLIL VA NATIJALARI

Erta bolalar autizmini O.S. Nikolskaya va K.S. Lebidinskaya 4 guruhga ajratadilar. Ushbu tasnifning mezoni quyidagicha:

- tashqi muhit bilan o'zaro munosabatlarning ta'sirining tabiati va darajasi;



- birlamchi buzilishlarning tabiati va darajasi.

Birinchi guruhga chuqur autizmga chalingan bolalar kiradi. Bu guruhdagi autistik bolalar gapirmaydilar, boshqalar bilan aloqa qilmaydilar, odamlar va ularning atrofidagi dunyo bilan aloqa o'rnatmaydilar va hatto bu aloqani o'rnatishga harakat ham qilmaydilar. Bunday bolalarning eng katta istagi boshqalardan o'zini ajratishdir.

Ikkinchi guruhga kiruvchi autistik bolalar toifalari atrof-muhitni faol rad etishdir. Ushbu guruhdagi bolalarda aloqaning kamroq buzilishi kuzatiladi va bolalarning harakati stereotipikdir. Ushbu guruhdagi bolalar yuz ifodasida tashqi olamdan qo'rquvni ifodalaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy aloqalarni o'rnatishi mumkin, garchi ular muloqot uchun ob'yektlarni qat'iy tanlasalar ham, ularning nutqi rivojlangan, faqat ehtiyojlarini ifodalash uchun foydalanadilar.

Uchinchi guruh autizmli bolalari esa qiziqishlari bilan band, boshqalarga haddan ziyod ziddiyatda bo'ladilar, bu tajovuzkor shaklda namoyon bo'ladi. Bu bolalar monolog nutqi bilan ajralib turadi, ammo bu nutq frazali, biroz g'ayritabiiy. Bu bolalarning yana bir ajratib ko'rsatilgan tarafi turli fanlardan har xil bilimlarning mavjudligi, ammo bu bilimlarni sezilarli darajada manipulyatsiya qilishdir.

To'rtinchi tur autizm sindromli bolalar bilan munosabat qilish juda qiyin, bu bolalar juda zaifdir. Bunday holda, autizm ularda rivojlanmagan aloqa shakllariga ega ekanligi bilan ifodalanadi. Bu bolalar muloqotga katta ehtiyoj sezadilar va ijtimoiy muloqotga kirishishga tayyor. Ammo ular himoyalalmagan va himoyasiz, shuning uchun agar bu bolalar muloqotda yoki qarshilikda biror to'siqni sezsa, muloqot darhol to'xtaydi.[2]

Autizmga ega bolaning ehtiyojlarining tanqisligi, ko'z bilan aloqa o'rnatishga bo'lgan intilishlarining yo'qligi, muloqotga kirishishdagi asossiz qo'rquvlar uning "ijtimoiy yakkaligining" yorqin ko'rinishidir. Autizmga ega bolaning qarashlari bo'shliqqa qaratilgan bo'lib, suhbatdoshiga qaratmaydi. Ko'pincha ushbu qarash autizmli bolaning ichki tashvishlanishlarini ifodalaydi. Go'daklik vaqtida hatto onasining yuzi ham bolada qo'rquv uyg'otishi mumkin. Autizmga ega bo'lgan bolaning inson yuziga bo'lgan reaksiyasi shunday g'ayritabiiy-ki: bola insonning yuziga qaramaydi, ammo uning periferik ko'ruvi boshqa odam tomonidan qilingan



barcha, hatto sezilar-sezilmay mayda harakatlarni sezishi mumkin. Go‘daklik davrida onasining yuzi "jonlanish kompleksi" o‘rniga bolada qo‘rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Ulg‘aya borgan sari autizmga ega bo‘lgan bolaning ushbu hissiy omilga bo‘lgan munosabati o‘zgarmaydi. Odamning yuzi, yuz ifodasi juda kuchli ta’sirlovchi bo‘lib qoladi. [3].

Autizm - keng ma’noda, odatda, aloqaga kirishmaslik, “yovvoyilik”, aloqadan o‘zini olib qochish, o‘zining dunyosida yashash ma’nosini anglatadi. Aloqaga kirishishdan qochish turli shaklda va sabablarga ko‘ra namoyon bo‘lishi mumkin. Ba’zan bu bolaning xarakteri kuchsiz bo‘lsa, boshqa hollarda uning ko‘rish yoki eshitish qobiliyatining yetarlicha bo‘lmasligi, aqliy rivojlanishdan orqada qolish, nutq rivojlanishining orqada qolishi (eng avvalo, uning kommunikativ, ya’ni aloqa qilish funksiyasining), nevrotik buzilishlar yoki og‘ir gospitalizm (bolaning ilk yoshlarida ijtimoiy jihatdan izolyatsiya qilinishi natijasida yuzaga kelgan aloqa qilishning surunkali taqchilligi) oqibatida kelib chiqadi. Kommunikatsiya (aloqa) qilishning buzilishlari ko‘p hollarda asosiy yetishmovchilik: aloqa qilishga bo‘lgan ehtiyojning sustligi, ma’lumotlarni idrok etish va vaziyatni tushunishning qiyinligi, ilk yoshlarda aloqaning surunkali yetishmasligi, nutqdan foydalana olmaslik oqibati bo‘ladi.[4].

Autizmning asosiy belgilari bir yoshdan uch yoshgacha davrda to‘liq namoyon bo‘ladi. Ota-onalar quyidagi belgilarga e’tiborli bo‘lishlari kerak:

- Bolaning ota-onasi bilan bo‘lishini yoqtirmaslik (qo‘liga olishi, quchoqlashishi, o‘pishi, silashi va h.k.).
- Uch yashar bola nutqining rivojlanmaganligi.
- Biron bir kishi bilan bo‘lishdan ko‘ra bir o‘zi bo‘lishini yoqtirishi; ular buyumlarni doim bir xil tartibda qo‘yib chiqadilar.
- Tevarak-atrof bilan aloqada bo‘lishni istamasligi; qiziqmaslik.

Odatda bola nutqi hali rivojlanmagan bo‘lsa ham, u o‘z istak-xohishlarini imo-ishora, harakat bilan bildiradi. Bola autizmida esa bu kuzatilmaydi.

- Bola ko‘zingizga qaramaydi.
- Bolaning harakatlari, imo-ishoralari hech narsani bildirmaydi, asabiylashganini ko‘rsatadi.



- Bola bir tonda, ifodasiz, xuddi bir yod olgan matnni ifodalayotgandek gapiradi. Bola o'zi yaxshi gapira olmasa ham, uning aks-sado nutqi, ya'ni exolaliya - kimnidir ketidan qaytarish qobiliyati yaxshi bo'ladi.

- Odatdan tashqari idrok etish reaksiyalari (ovozga, hid, ta'm, ushlab ko'rishlarga), masalan, ovozdan qattiq qo'rqib tushishi, ma'lum hiddan tushkunlikka tushishi va h.k.[4]

Quyida autizmning eng keng tarqalgan simptomlari keltirilgan:

- Bola odatda ismiga e'tibor bermaydi.
- Yolg'iz o'ynashni yoqtiradi.
- Ko'zga qarashdan qochadi.
- 12-14 oylik davrda ham oddiy murojaat nutqini (kel, ol, ber, qo'y kabi so'zlar, ishoralar) tushunmaydi.
- Nimadir istaganda ko'rsatkich barmog'ini ishlatmaydi.
- Aylanuvchi jismlarga, masalan, mashina baloniga boshqa o'yinchoqlardan ko'proq qiziqadi.
- Til imkoniyatlari jihatdan ortda qola boshlaydi.
- Boshini devorga, yerga yoki qo'li bilan uradi.

Yuqorida sanab o'tilgan belgilarning hammasi ham va doim ham kuzatilmaydi. Lekin ota-ona tomonidan ularning bittasi payqalgan taqdirda ham, bu shifokor qabuliga borish uchun asos bo'la oladi. O'zbek ota-onalari orasida 2-3 yoshda ham biror so'z ayta olmaydigan bolaga nisbatan befarqlik kuzatiladi, kattalar tomonidan «bobosi ham 5 yoshida gapirgan», «hamma bola har xil bo'ladi», «o'zi ko'p multfilm ko'radi», «yolg'iz katta bo'lyapti, shunga kamgap, unga uka obkelish kerak», «onasi yaxshi qaramaydi, telefonga yopishib qolgan» kabi bahonalar tez-tez ishlatiladi. Va, afsuski, yo'qotilgan vaqt ko'p hollarda bolaning zarariga ishlaydi.

Autistik bolalarning o'ziga xosligi ham aynan nutqni tushunish muammolari bilan bog'liq bo'lib, u siz nima deyotganligingizni anglay olmaydi, shu sababli ham gapirmaydi, muloqotga kirishmaydi. Bu muloqot uzilishi ortidan autistik bolalarda normatipik bolalardagiga qaraganda ko'proq asabiylik, agressiya va norozilik kuzatilishi mumkin[5].



Xulosa. Jamiyatimizda autizm bilan bog‘liq qo‘rqinchli narrativlar yashagani holda, aslida autizm qo‘rqinchli tushuncha emas, autizm xavfli emas, autizm hukm emas va autistlar bugun siz va bizning oramizda yashaydi. Biz yetarli bilimga ega emasligimiz ortidan ularni odamovi, introvert yoki boshqa qandaydir nomlar bilan atarmiz balki. Autizm sindromli bolalarni barcha tengdoshlari kabi qabul qilishimiz, ularga oddiy bolalardek munosabat bildirishimiz autistik bolalarni jamiyatga moslashuvi birmuncha oson kechishiga olib keladi. Bu munosabat oiladan boshlanadi. Ota-onalar bolalarini nuqsonli deb emas, balki barcha farzandlari kabi ularga qanday vazifa bersa, bu bolaga ham shunday yuklamalar bilan mashg‘ul qilish kerak. Ko‘pchilik oilalarda autizmni aqliy zaiflik bilan adashtirib, bolalar rivojlanishida kechikishlarga sabab bo‘ladi. Autizm belgilari qancha erta payqalsa va unga tegishli choralar, davo ishlari olib borilsa, bunday bolalar kelajakda kutilgandan ham yaxshiroq natijalarga erishishi mumkin. Hozirda autizmga chalinib, kelajakda katta mashhurlikka erishgan shaxslar ham ko‘p. Shu vaqtgacha autizm kasalligini genetik kasallik deb hisoblashgan. So‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, autizm kasalligi atrof-muhitdagi turli xil .

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Nuritdinovna, N. M. (2022). BOLA SHAXSINING SHAKLLANISHIDA PSIXOLOGNING O‘RNI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(4), 61-63.
2. Nuritdinovna, N. M., & Murtozaevna, M. M. (2022). PEDAGOGICAL MECHANISMS OF DEVELOPING PROFESSIONAL MOBILITY OF FUTURE MANAGERS. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.5 Pedagogical sciences).
3. Низамова, М. Н. (2022). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ БУДУЩЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ. Science and innovation, 1(В3), 530-532.
- 4.. Низамова, М. Н. (2022). ПРИЧИНА ВОЗНИКНОВЕНИЯ АУТИСТИЧЕСКОГО ДЕФЕКТА. Ученый XXI века, (5-1 (86)), 59-61.



5. Nuriddinova, N. M. (2022). NUTQNI TO'LIQ RIVOJLANMAGANLIGINI BARTARAF ETISHDA PEDAGOGIK KORREKSION ISHLAR TIZIMI. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(25), 19-22.
6. Nizamova, M. (2023). BO 'LAJAK MENEJERLARDA AKADEMIK MOBILLIKNI AMALGA OSHIRISH SHART SHAROITLARI. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (6), 759-763.
7. Muyassar, N. (2023). OLIY TA'LIM TIZIMLARIDA KASBIY MOBILLIKNI RIVOJLANTIRISH VA ULAR ASOSIDA PEDAGOGIK MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 12-15.
8. Sodiqova, Y., & Nizamova, M. (2023). YOZMA NUTQ NUQSONLARI. Академические исследования в современной науке, 2(11), 76-80.
9. Nizamova, M., & Mansurova, S. (2024). BOLAGA NECHA YOSHDAN CHET TILLARNI O'RGATISH MUMKIN? OTA-ONALARNI QIZIQTIRGAN SAVOLLARIGA MUTAXSIS JAVOB. Бюллетень студентов нового Узбекистана, 2(1), 46-49.